

Erkinlik, bu - yolg'on gapirmaslik huquqidir.

\* \* \*

Nega men san'atkorman, faylasuf emasman? Chunki men g'oyalar orqali emas, so'zlar vositasida fikrlayman.

\* \* \*

Hayotning buyuk savoli - odamlar orasida qanday yashash.

\* \* \*

Tragediya.  
L.: Dunyoni qayta yaratish - arzimas vazifa.  
S.: Dunyoni emas, odamni qayta yaratish darkor.

\* \* \*

Faqat obrazlar orqali tafakkur qilish mumkin. Agar faylasuf bo'lishni xohlasang, romanlar yoz.

\* \* \*

Grenye kommunizm haqida: "Adolat idealini deb bema'niliklarga rozi bo'lish kerakmi". "Ha", deb javob berish mumkin, bu - go'zal. "Yo'q", deb ham javob berish mumkin, bu - vijdonan bo'ladi. - Butun masala ana shunda."

\* \* \*

Erkin matbuot yaxshi ham, yomon ham bo'lishi mumkin. Erksiz matbuot faqat yomon bo'ladi.

\* \* \*

Kamdan-kam odam san'atni anglashga qodir.

\* \* \*

Yozish - minnatsiz yumush demakdir.

\* \* \*

Manu qonuni:  
"Ayoilning dudog'i, yosh qizning ko'ksi, go'dakning duosi, qurbanlik olovi hamisha pokiza".

\* \* \*

O'linda o'yin va qahramonlik o'zining haqiqiy ma'nosiga ega bo'ladi.

\* \* \*

(1936), mart.  
Mening shodligim chegarasiz.

\* \* \*

31 Mart.  
Menda shunday tuyg'u borki, go'yo men bir maromda tubanlikdan ko'tarilayotgandekman...

\* \* \*

May.  
Jazoirda kun og'ayotganda ayollar naqadar go'zal.

\* \* \*

Ayoilning ayovli va sipo do'stligi.

\* \* \*

XX asrning eng kuchli ehtirosi - malaylikdir.

\* \* \*

Eng xavfli yo'lidan ozish: hech kimga o'xshamaslik.

\* \* \*

Men hech narsadan ko'z yummashlikni afzal bilaman.

\* \* \*

Hamisha haq bo'lishga intilish - aqlning tarbiya topmaganligi belgisidir.

\* \* \*

Har qanday odamning hayotida buyuk tuyg'ular kam, mayda hislar ko'p bo'ladi...

\* \* \*

Ha, mening vatanim bor: fransuz tili.

This is not registered version of TotalDocConverter